

TARJIMA TAVSIFI (TRANSLATION EXPOSITION)

Ilmiy rahbar: **Egamberdiyeva Iroda**

ADCHTI dotsenti

Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi

va tarjimashunoslik fakulteti,

tarjima nazariyasi va amaliyoti 1–kurs talabasi

Abdurashidova Rayyona

Annotatsiya – ushbu maqolada tarjima haqida umumiy ma'lumotlar berilib, uning asosiy xususiyatlari va turlari o'rganilinadi. “Tarjima o'zi nima? U qachon va qayerda yuzaga kelgan? Tarjima nazariyasi va amaliyotiga hissa qo'shgan olimlar kimlar?”– kabi savollar, albatta, har bir insonda tug'ilishi tabiiy. Bu savollarga javob ushbu maqolada muhokama qilinadi. Mazkur maqola tarjima nazariyasi va amaliyotida hamda tarjimonlar va til o'rganuvchilar uchun foydali ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Kalit so'zlar: - tarjima tarixi, tarjima turlari, olimlar qarashlari va nazariyalari, tarjimaning muammolari va ularning yechimlari.

Kirish

Tarjimaning sifatini, uni qay darajada moslashtirilganligini tekshirish tarjima nazariyasi va amaliyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi zamonaviy texnologiyalar davrida hech qanday mashina tarjimalarisiz (without machine translation) sof tarjimaga bo'lgan talab ortib bormoqda. Tarjimaning asosiy maqsadi bir tildagi matni hech qanday o'zgarishlarsiz tinglovchiga yoki o'quvchiga mos ravishda boshqa tilda yetkazib berishdir.

Asosiy qism

Miloddan avvalgi asrlarda insonlarning yashash tarzi rivojlangani sari bir – birlari bilan bo'lgan aloqalari yildan yilga yaxshilanib borgan. Ushbu jarayon orqali turli millat

vakillarining bir – birini tushunishga qiynalغانliklari sababli tarjima shakllana borgan. Dastlab, tarjimonlik vazifasini bir shahardan boshqa shaharga qul qilib olib ketilgan insonlar, savdogarlar, hunarmandlar va ovchilar bajarganlar. Tarjima soʻzining kelib chiqish tarixi quyidagicha: qadimda Oʻrta Osiyo va Eron xalqlari oʻrtasida notiqlik sanʼati rivojlangan boʻlib, ular tarzabon deb atalgan.

“Tar” – fors fors tilida yangi shirali, nzik, latif kabi maʼnolarni bildirsa, “Zabon” – til degan maʼnoni anglatadi. Shunday qilib, “Tarzabon” chiroyli gapiruvchi, soʻz ustasi, notiq deb yuritiladi. Tarjimon til bilishdan tashqari, dunyoqarashi keng boʻlishi va chuqur bilim ega boʻlishi kerak. Ana shundagina uning tarjimasini chiroyli va tushunarli boʻlib chiqadi.

“Tarjima nazariyasi“ asarida “Tarjima ayni paytda ham jarayon ham faoliyat mahsulidir” – deya taʼrif berilgan. Bunga bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish orqali 90% maʼnoni yoritib bergan matnlar kiradi. Tarjimadagi har bir soʻz ikki koʻrinishga ega boʻlib, ular: ifoda plani hamda maʼno planidir. Ifoda planida oʻzgarishlar sodir boʻlsa, maʼno planida bunday jarayon kuzatilmaydi. Shuningdek, tarjima jarayonida 2 til ishtirok etadi, ular asliyat va tarjima tilidir. Asliyat tili – tarjima qilinishi kerak boʻlgan til boʻlsa, tarjima tili – biror bir tilga tarjima qilinishi kerak boʻlgan til boʻladi.

Sitseron va Goratsiy tarjimaga millatning tili va adabiyotini boyitishga xizmat qiladigan vosita sifatida qaragan. Ular oʻz asarlarida maʼnoning koʻchishini va matn matn shakli oʻrtasidagi qarama – qarshilikni koʻrsatganlar. Ular tarjima asl matn nusxasining soʻzma – soʻz koʻchisi emas, balki ilmiy – ijodiy talqini boʻlishi kerak deb hisoblashgan.

Tarjima bir necha turlarga boʻlinadi:

1. Ketma – ket tarjima (consecutive translation)

Bir tildagi ogʻzaki matn berilgandan soʻng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon soʻzlovchining umumiy fikrlarini tinglab, yozib olgan maʼlum bir eslatmalari yordamida manbani tarjima qiladi.

2. Visual tarjima (sight translation)

Matn, rasm, diagramma yoki grafik shakldagi axborotlarni bir til yoki kontejstdan boshqasiga o'tkazish jarayonidir. Ba'zi tarjimonlar visual tarjima qilishdan oldin yozma ravishda rejalashtirilgan matnni ko'rib chiqadi va tarjimini shunchaki o'qib emas, balki chiroyli ifoda etib o'qishi kerak.

3. Sinxron tarjima (simultaneous translation)

So'zlovchi nutqini o'sha zahoti u bilan teng vatqda tarjima qilish jarayonidir. Tarjimon berilayotgan axborotni so'zlovchi bilan teng boshlashi va u bilan teng tugatishi kerak. Ushbu tarjima asosan konferensiyalar, diplomatik uchrashuvlar va seminarlarda keng qo'llaniladi.

4. So'zma – so'z tarjima (literal translation)

Manba matnidagi har bir so'z, grammatik tuzilish imkon qadar o'zgartirilmay, tarjima tiliga o'tkaziladi. Har bir so'z o'zining ma'nosini saqlab qoladi. Ko'proq texnik, ilmiy va ma'lum bir sohaga oid matnlarda foydalaniladi.

5. Mashina tarjima (machine translation)

Kompyuter yoki sun'iy intellekt (chatgpt, gemini, google translator va h.k) kabi tizimlar yordamida matnni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishdir. Ammo kontekst va ma'daniy farqlarni to'g'ridan to'g'ri tarjima qiladi. Bu esa matnning asl ma'nosini yo'qotadi.

Olimlarning tarjima nazariyasi haqida ilgari surgan fikrlari va nazariyalariga keladigan bo'lsak, ular tarjimaga turlicha ta'rif berganlar. Misol uchun:

Catford (1917 – 2009) “A linguistic theory of translation” asarida tarjimini lingvistik hodisa va til birliklarini almashtirilishi deb ta'riflaydi. U ikki asosiy tushunchani fanga kiritgan bo'lib, ular: formal correspondence (matndagi til birligi tarjimada o'xshash funksiyani bajaradi) and tactual equivalence (tarjima matni asl matn bilan bir xil bo'lishi)dir. Shuningdek, Catford tarjimini 3 turga bo'ladi.

- Intralingual translation (bir til ichidagi tarjima)

- Interlingual translation (bir tildan boshqasiga tarjima qilish jarayoni)
- Inter semiotic translation (tilni boshqa belgili tizimga tarjima qilish like hard of hearing)

Darbelnet “Stylistic comparison in French language” asarida asosan fransuz va ingliz tillarining uslub va grammatik tuzilmalarini solishtirgan. Uning fikricha tarjima uslublari 7 ga bo’linadi:

To’g’ridan to’g’ri tarjima (direct translation)

1. Qarindosh tarjima > so’z asl tilidek tarjima qilinadi (borrowing)
2. Kalkalash tarjima > qo’shma so’zlar (skyscraper)
3. So’zma – so’zma tarjima > grammatik va sementik moslik

Bilvosita tarjima (indirect translation)

4. Transpozitsiya > so’zlarning tuzilishi (translate, translator, translation)
5. Modulyatsiya > fikrni qayta ifoda etish (easy, it is not difficult)
6. Ekvivalant > biror iborani boshqa tilga moslashtirish

(EN > when the pig flies, UZ > when the camel’s tail touches the ground)

7. Adaptatsiya > madaniy jihatdan so’zlarni moslashtirish.

Hamma kasb o’zining qiyinchiliklari, muammolariga ega bo’lganidek, tarjimonlik kasbining vakillari ham o’z faoliyatlari davomida turli xil vaziyatlarga duch kelishadi. Avvalo, badiiy tarjimadagi muammolarni ko’rib chiqadigan bo’lsak, ular:

- Til va uslub muammolari
- Madaniy farqlar va kannotatsiya muammolari
- So’z o’yinlari va metofaralarning tarjimasi
- Dialog va obrazlarning milliy ruhini saqlash
- She’riy asarlarda uchraydigan muammolar

Tarjimonning faoliyati davomida har kuni ushbu qiyinchiliklar kuzatiladi. Agar u yuqorida keltirib o’tilgan muammolarni bartaraf etmasa, uning tarjimasiga zarar yetadi. Shuning uchun ham tarjimonlar faqatgina til vositachisi emas, balki ijodkor ham sanaladi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun esa tarjimondan asarning badiiy qiymatini,

muallif uslubini, ruhiyatini, obrazlarning ritmini va estetik ta'sirini boshqa tilda to'liq ifoda eta olish talab etiladi.

Og'zaki tarjimadagi muammolarni esga oladigan bo'lsak, ular quyidagicha:

- Turli til egalarining sheva, aksent yoki talaffuzidagi farqlar
- Uzun jumlar va aralash fikrlar
- Tinglovchi va nutq vaziyatining bosimi
- Ba'zida so'zlarni anglamay qolish
- Emotsional yoki keskin vaziyatlar

Ko'rib turganingizdek, og'zaki tarjimaning ham o'ziga xos qiyinchiliklari talaygina, tarjimon bunday vaziyatlarga tushib qolmasligi uchun undan uzoq yillik mahorat, tinimsiz til bilan shug'ullanish hamda xotira va diqqatni jamlash talab qilinadi.

Xulosa

Tarjima jarayoni – bir tildan boshqa tilga matnni o'girish hamda turli millat vakillarining madaniyati, ma'no va mazmunini to'g'ri ifoda eta olish san'atidir. Tarjimonga faoliyati davomida nafaqat tilni bilish, balki keng dunyoqarash, yuqori mas'uliyat kerak bo'ladi. Shunday qilib, tarjimonlar millatlararo hamdo'stlikka, madaniy yaqinlashuvga va bilim almashishga xizmat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy tarjima nazariyasi va asoslari Komissarov, V. N.
2. Towards a science of translation 1964
3. In other words: a coursebook on translation 2011
4. Catford, J. C. A linguistic theory of translation. Oxford.
5. Darbelnet, Stylistic comparison in French language
6. Sulonov S. tarjimonlik mahorati va tarjima muammolari.